




## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-oktabr)

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da**



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 7516,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 104,7 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,58 % ni tashkil etdi.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning sanoatida - 7,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida - 4,7 % ga, suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 8,8 % ga o'sishi kuzatilib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 3,8 % ga kamayishi kuzatildi.

**\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi – ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.**

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,2 mldr.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,03 % ini tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7183,7 mldr.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,58 % ini tashkil etdi. O‘z navbatida sanoatning mazkur tarmog‘ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 45,7 %, to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 19,8 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 13,9 % ni tashkil etganligini ko‘rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 45,7 %.**




**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 19,8 %.**



**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -13,9%.**


### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 276,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,67 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 107,2 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54,2 mldr.somni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,72 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash – 66,1 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish – 33,2 % tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %**


● Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish



### Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
<b>Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:</b>	201,3	475,6	- 274,3

**Issiqlik energiyasi – ming Gkal:**


71,2                    72,2                    - 1,0

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
<b>Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – dona:</b>	44076,0	42238,0	1838
<b>Maxsus yengil avtomobillar – dona:</b>	7061,0	5972,0	1089
<b>Aroq – ming liter:</b>	336,0	920,7	- 584,7
<b>Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming liter:</b>	11,1	17,1	- 6,0
<b>Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming liter:</b>	692,0	1028,8	- 336,8
<b>Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:</b>	77651,0	67371,8	10279,2
<b>Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:</b>	9308,2	13242,3	-3934,1
<b>Xo‘jalik sovuni – tonna:</b>	2955,0	4670,0	- 1715
<b>Paxta tolasi – tonna:</b>	46242,7	41709,2	4533,5
<b>Paxta chigit – tonna:</b>	74602,8	65066,3	9536,5

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 274,3 mln.kVtsga, issiqlik energiyasi 1,0 ming gkalga, aroq 584,7 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 336,8 ming litrga, tozalangan o'simlik yog'i 3934,1 tonnaga, xo'jalik sovuni 1715 tonnaga kamaygan.

Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobiliarsiz), yumshoq bug'doy va spelta uni, paxta tolasi, paxta chigit sezilarli darajada oshgan.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2019-yil yanvar-oktabr oylarida o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yil yanvar-oktabr oylarida bu ko'rsatkich 6,9 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 37,3 foizdan 40,1 foizga, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,02 foizdan, 0,02 foizga oshgan bo'lsa o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 51,8 foizdan 48,6 foizga kamayish kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 1,2 mlrd.so‘mlik (2019-yil yanvar-oktabr oylarida 1,1 mlrd.so‘m), o‘rtayuqori texnologiyali tarmoqda 3651,4 mlrd.so‘mlik (3438,6 mlrd.so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 520,3 mlrd.so‘mlik (383,1 mlrd.so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 3010,8 mlrd. so‘mlik (2472,1 mlrd.so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



### Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>2020-yil yanvar-oktabr mlrd. so‘m</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>7516,3</b>	<b>104,7</b>
Urganch shahri	1418,2	96,1
Xiva shahri	116,5	104,4
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog‘ot tumani	251,2	108,4
Gurlan tumani	292,2	101,3
Qo‘shko‘pir tumani	146,3	103,3
Urganch tumani	306,3	105,0
Hazorasp tumani	232,2	142,5
Tuproqqal‘a tumani*	3554,1	105,7
Xonqa tumani	385,9	102,1
Xiva tumani	175,6	129,6
Shovot tumani	232,7	107,7
Yangiariq tumani	196,0	118,3
Yangibozor tumani	209,1	142,5




Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Tuproqqal'a va Yangiariq tumanlari, Xiva shahri, Gurlan, Qo’shko’pir, Shovot, Yangibozor, Xiva, Hazorasp, Xonqa, Bog‘ot va Urganch tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.


*\*Tuproqqal'a tumani – 2020 yil aprel oyida Hazorasp tumani hududidan alohida ajralib chiqqan tuman hisoblanadi.*

## Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, Yangibozor tumanida 142,5 %, Hazorasp tumanida 142,5 %, Xiva tumanida 129,6 %, Yangiariq tumanida 118,3 %, Bog'ot tumanida 108,4 %, Shovot tumanida 107,7 %, Tuproqqa'l'a tumanida 105,7 %, Urganch tumanida 105,0 %, Xiva shahrida 104,4 %, Qo'shko'pir tumanida 103,3 %, Xonqa 102,1 % va Gurlan tumanida 101,3 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



**SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI**  
2019-YIL YANVAR-OKTABR OYLARIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushga ega Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 47,3 %), Urganch shahri (18,9 %), Xonqa (5,1 %), Urganch (4,1 %) hamda Gurlan (3,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumanı (2,3 %), Qo'shko'pir tumani (1,9 %) va Xiva shahri (1,5 %)ga to'g'ri kelmoqda.




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.  
(mlrd.so'm)**

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>7516,3</b>	<b>6632,6</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>2,2</b>	<b>2,0</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	2,2	2,0
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>7183,7</b>	<b>6294,9</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1046,0	954,5
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	261,4	220,3
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1488,2	1112,1
Kiyim ishlab chiqarish	50,9	17,6
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	4,3	4,7

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
Yog‘och va po‘kak buyumlar, poxol va to‘qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	9,5	7,5
Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	40,3	16,1
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,1	1,4
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,8	0,6
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	36,9	35,0
Asosiy farmasevtika	0,9	0,7
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	52,5	40,8
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	270,5	177,3
Metallurgiya sanoati	33,8	27,0
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	151,5	120,1
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,3	0,4


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	22,8	23,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	153,5	426,2
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3433,7	2953,1
Mebel ishlab chiqarish	40,7	33,4
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	68,5	104,4
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	11,1	17,4
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>276,2</b>	<b>293,4</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>54,2</b>	<b>42,4</b>




## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 4927,8 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 foizni tashkil etdi.

2020 yil yanvar-oktabr



2019 yil yanvar-oktabr



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 1138,4 mlrd.so'mni, alkogol ichimliklar 14,3 mlrd.so'mni va 3775,1 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 92,3 foiz, 50,5 foiz va 104,8 foizni tashkil qildi va Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 65,6 foizni (2019 yil yanvar-oktabr oylarida 73,3 foiz) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 296,0 mlrd.so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 2926,2 mlrd.so'mni tashkil qilgan va 552,9 mlrd.so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o’sish sur’ati  
(2020-yilning yanvar-oktabr oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>4927,8</b>	<b>100</b>	<b>101,3</b>
Urganch shahri	681,3	13,8	102,3
Xiva shahri	83,0	1,7	103,5
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	171,3	3,5	103,9
Gurlan tumani	143,0	2,9	98,3
Qo‘siko‘pir tumani	53,2	1,1	78,1
Urganch tumani	223,4	4,5	97,8
Hazorasp tumani	64,0	1,3	72,4
Tuproqqal'a tumani	2985,4	60,6	104,4
Xonqa tumani	206,6	4,2	106,7
Xiva tumani	79,6	1,6	77,5
Shovot tumani	105,6	2,1	90,8
Yangiariq tumani	72,7	1,5	88,2
Yangibozor tumani	58,7	1,2	86,2

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib, 60,6 % ni, shuningdek, Urganch shahrida 13,8% ni, Urganch tumanida 4,5 % ni, Xonqa tumanida 4,2 % ni hamda Bog'ot tumanida 3,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (101,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xonqa tumanida (106,7 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2020-yilning yanvar-oktabr oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1138,4</b>	<b>100</b>	<b>92,3</b>
Urganch shahri	401,6	35,3	93,9
Xiva shahri	37,3	3,3	91,5
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	84,9	7,5	117,5
Gurlan tumani	69,0	6,1	87,0
Qo‘shko‘pir tumani	27,7	2,4	65,3
Urganch tumani	137,7	12,1	99,9
Hazorasp tumani	36,0	3,2	66,8
Tuproqqał'a tumani	14,4	1,3	59,2
Xonqa tumani	143,9	12,6	109,6
Xiva tumani	38,4	3,4	71,4
Shovot tumani	71,1	6,2	88,6
Yangiariq tumani	37,0	3,3	86,0
Yangibozor tumani	39,4	3,5	84,9



Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 35,3 %, shuningdek, Urganch tumanida 12,1 % ni, Xonqa tumanida 12,6 % ni, Bog‘ot tumanida 7,5 % ni, Shovot tumanida 6,2 % ni, Gurlan tumanida 6,1 % ni hamda Xiva tumanida 3,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bog‘ot tumanida (117,5 %), Xonqa tumanida (109,6 %) da kuzatildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2020-yilning yanvar- oktabr oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3775,1</b>	<b>100,0</b>	<b>104,8</b>
Urganch shahri	265,4	7,0	126,4
Xiva shahri	45,7	1,2	115,9
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	86,4	2,3	93,3
Gurlan tumani	74,0	2,0	111,8
Qo‘shko‘pir tumani	25,5	0,7	99,1
Urganch tumani	85,7	2,3	94,7
Hazorasp tumani	28,0	0,7	81,2
Tuproqqa'l'a tumani	2971,0	78,7	104,7
Xonqa tumani	62,7	1,7	100,6
Xiva tumani	41,2	1,1	84,3
Shovot tumani	34,5	0,9	95,7
Yangiariq tumani	35,7	0,9	90,7
Yangibozor tumani	19,3	0,5	89,2

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to‘g‘ri kelib, 78,7 %, shuningdek, Urganch shahrida 7,0 % ni, Bog‘ot tumanida 2,3 % ni, Urganch tumanida 2,3 % ni, Gurlan tumanida 2,0 % ni va Xonqa tumanida 1,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (104,8 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkichni Urganch shahri (126,4 %), Xiva shahri (116,0 %), Tuproqqal'a tumani (104,7 %) va Xonqa tumani (100,5 %), tashkil qildi.




### **Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati (2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da)**

Iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan Xonqa tumanida (106,7 %), Tuproqqal'a tumanida (104,4 %), Bog‘ot tumanida (103,9 %), Xiva shahrida (103,5 %) va Urganch shahrida (102,3 %) sezilarli darajada o‘sgan.

Qolgan barcha tumanlarda o‘sish sur’ati 100 % dan kamayganini ko‘rish mumkin.

Masalan, Gurlan tumanida 98,3 %, Urganch tumanida 97,8 %, Shovot tumanida 90,8 %, Yangiariq tumanida 88,2 %, Yangibozor tumanida 86,2 %, Qo‘shko‘pir tumanida 78,1 %, Xiva tumaniga 77,5 % va Hazorasp tumanida 72,4 % to‘g‘ri keladi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020-yil yanvar- oktabr oylarida, ming so‘m)**


<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da</b>	<b>Iste’mol mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>4008,0</b>	<b>103,1</b>	<b>2627,7</b>	<b>99,7</b>
Urganch shahri	9834,2	94,9	4724,9	101,0
Xiva shahri	1258,7	102,9	897,2	102,0
<i>shundan tumanlar;</i>				
Bog‘ot tumani	1525,1	106,5	1039,8	102,1
Gurlan tumani	1970,5	99,9	964,1	96,9
Qo‘shko‘pir tumani	849,5	101,7	308,9	76,9
Urganch tumani	1540,1	103,1	1123,5	96,0
Hazorasp tumani	1199,1	180,3	330,6	91,6
Tuproqqal'a tumani	64326,4	0,0	54033,3	0,0
Xonqa tumani	2070,1	100,6	1108,3	105,1
Xiva tumani	1205,7	127,4	546,2	76,3
Shovot tumani	1368,5	106,0	620,7	89,4
Yangiariq tumani	1688,5	116,5	626,7	86,9
Yangibozor tumani	2394,1	140,4	671,6	85,0

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan joriy yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 4008,0 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida Xiva shahri 1062,0 ming so'mdan 2020-yil yanvar-oktabr oylarida 1258,7 ming so'mga, Bog'ot tumani 1292,5 ming so'mdan 1525,1 ming so'mga, Gurlan tumani 1877,4 ming so'mdan 1970,5 ming so'mga, Qo'shko'pir tumani 782,3 ming so'mdan 849,5 ming so'mga, Urganch tumani 1078,2 ming so'mdan 1540,1 ming so'mga, Xazorasp tumani 731,3 ming so'mdan 1199,1 ming so'mga, Xonqa tumani 1838,2 ming so'mdan 2070,1 ming so'mga, Xiva tumani 703,5 ming so'mdan 1205,7 ming so'mga, Shovot tumani 1177,4 ming so'mdan 1368,5 ming so'mga, Yangiariq tumani 1387,7 ming so'mdan 1688,5 ming so'mga va Yangibozor tumani 1182,1 ming so'mdan 2394,1 ming so'mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqal'a tumanida (64326,4 ming so'm), Urganch shahrida (9834,2 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4008,0 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo'yicha 2627,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,7 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida Urganch shahri 4676,2 ming so'mdan 2020 yil yanvar-oktabr oylarida 4724,9 ming so'mga, Xiva shahri 879,6 ming so'mdan 897,2 ming so'mga, Bog'ot tumani 1018,5 ming so'mdan 1039,8 ming so'mga va Xonqa tumanida 1054,6 ming so'mdan 1108,3 ming so'mga o'sgani kuzatildi.



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-oktabr oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Urganch tumani (76,0 %), Bog'ot tumani (73,1 %), Gurlan tumani (67,6 %), Qo'shko'pir tumani (57,7 hissasiga to'g'ri kelgan.

Viloyatda yanvar-oktabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2025,0 mldr.so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,9 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili Tuproqqa'l'a tumani (2,8 %), Yangibozor tumani (25,6 %), Shovot tumani (32,2 %), Urganch shahri (35,2 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 889,2 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,8 % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati statistika  
boshqarmasi  
Sanoat statistikasi bo‘limi.  
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99